

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova</b> Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
<b>A.K.Ergashev</b> Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
<b>R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova</b> O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

---

ILMIY AXBOROT

<b>D.I.Ibragimova</b> Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
<b>Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova</b> Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish .....	293
<b>A.A.Ergashev</b> Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi .....	298
<b>I.Rustamov</b> Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli.....	302
<b>M.Nasritdinova</b> Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
<b>M.V.Nasridinov</b> Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni .....	310
<b>G.O.Shaxbazova</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	315
<b>N.N.Norxo'jayeva</b> Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
<b>D.R.Ismoilova</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni .....	322
<b>D.B.Toshpo'latova</b> Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
<b>М.Ф.Рахмоналиева</b> Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
<b>M.F.Adasheva</b> Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	336
<b>U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva</b> O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli .....	340
<b>M.A.Abdujalilova</b> Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes .....	348
<b>U.T.Isakov</b> O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
<b>U.U.Xolova</b> Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf .....	356
<b>T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov</b> O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari .....	360
<b>Y.Y.Turakulov</b> Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 378:37.014.5:37.091.33

**MALAKAVIY AMALIYOT VOSITASIDA TALABALARNI AMALIY PEDAGOGIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHGA INNOVATSION YONDASHUV****ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ПРАКТИЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И АДМИНИСТРАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ КВАЛИФИЦИРОВАННУЮ ПРАКТИКУ****INNOVATIVE APPROACH TO PREPARING STUDENTS FOR PRACTICAL PEDAGOGICAL AND ADMINISTRATIVE ACTIVITIES THROUGH QUALIFIED PRACTICE****Toshpo'latova Dildora Baxriddinxon qizi** 

Namangan davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti, (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada talabalar mavjud nazariy bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olishlari, ta'lim jarayonida hosil bo'lgan kasbiy faoliyat ko'nikmalarining malakalarga aylanishini ta'minlash uchun malakaviy amaliyotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hamda o'tkazish nihoyatda muhim ekanligi va malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuvlar haqida so'z boradi.*

**Аннотация**

*В данной статье важно организовать и провести профессиональную практику методически, чтобы обеспечить возможность студентам эффективно применять имеющиеся теоретические знания на практике, а также обеспечить, чтобы навыки профессиональной деятельности, сформированные в процессе образования, стали квалификацией. Важное значение имеют и инновационные подходы к подготовке студентов к практической педагогической и управленческой деятельности средствами профессиональной практики.*

**Abstract**

*In this article, it is important to organize and conduct the professional practice methodically in order to ensure that students can effectively apply their existing theoretical knowledge in practice, and to ensure that the professional activity skills formed during the education process become qualifications. It is important and about innovative approaches to prepare students for practical pedagogical and management activities by means of professional practice.*

**Kalit so'zlar:** malakaviy amaliyot, amaliyotchi talaba, nazariy bilim, kasbiy faoliyat, kasbiy faoliyat ko'nikmalari, pedagogik jamoa, tashkiliy faoliyat, pedagogik faoliyat

**Ключевые слова:** профессиональная практика, практикующий студент, теоретические знания, профессиональная деятельность, навыки профессиональной деятельности, педагогический коллектив, организационная деятельность, педагогическая деятельность.

**Key words:** professional practice, practicing student, theoretical knowledge, professional activity, professional activity skills, pedagogical team, organizational activity, pedagogical activity

**KIRISH**

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak malakali mutaxassislarni tayyorlashda ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun belgilangan ta'lim davrida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llay olish ko'nikma, malakalari aynan amaliyot davrida mustahkamlanadi.

Talabalar mavjud nazariy bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olishlari, ta'lim jarayonida hosil bo'lgan kasbiy faoliyat ko'nikmalarining malakalarga aylanishini ta'minlash uchun malakaviy amaliyotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hamda o'tkazish nihoyatda muhim.

Malakaviy amaliyotning maqsadi - bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik va kasbiy faoliyat ma'suliyatini his etish va o'z

## ILMIY AXBOROT

ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o'rganishdan iborat [1].

Ayniqsa, talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ixtisoslik fanlari bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda pedagogik amaliyot o'ziga xos o'rin tutadi. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy faoliyatga qay darajada tayyor ekanliklarini mustaqil baholash uchun imkoniyat sanalsa, oliy ta'lim muassasalari uchun esa malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilganlik darajasini dastlabki aniqlash shakli hisoblanadi. Amaliyotchi-talabalarning pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli tashkil etishlarida mazkur davrda ularga ko'rsatilayotgan metodik yordam ham hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun amaliyotchi talabalar tomonidan pedagogik amaliyotni imkon qadar samarali tashkil etishga ko'maklashadigan metodik ko'rsatma va manbalar bilan bilan qurollantirish oliy pedagogik ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bugungi kundagi boshqaruv birinchi galda kishilarning iqtisodiy va moddiy holatini, ijtimoiy faoliyatini, ularni qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi, jamoada uyushqoqlik, tartib, mehnat taqsimoti bo'lmasa, kishining jamoadagi o'rni va vazifalari tayin bo'lmasa, mehnat jamoasi bo'lishi mumkin emas. Tabiiyki, boshqaruvsiz, muayyan tartibni o'rnatmasdan va quvvatlamasdan turib, mehnat faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi.

A.Fayol ta'rifiga ko'ra, boshqaruv – bu kelajakni ko'ruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroldir [2]

Qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir [2].

J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlar "Boshqaruv o'ziga xos san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov yoki izlanish asosida qarorlar qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir", deb ta'riflaydilar [3].

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, boshqaruv – bu maqsadga erishish uchun obyektga ta'sir etish bo'lib, obyekt faoliyatini muvofiqlashtirish, ya'ni maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirishdir. A.I.Kitovning fikricha, boshqaruv – bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlashdir [4].

Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan "boshqaruv – bu aniq bir maqsadga erishish uchun boshqaruv tizimiga yoki obyektga faol ta'sir ko'rsatish", shuningdek, "boshqaruv – bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki ma'lum bir shaxsning insonlar guruhiga ta'sir etishidir", deb ta'riflanadi.

Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida izohlanadi.

Yaponlar boshqaruvni avvalo, to'la berilib ishlash, agar kerak bo'lsa, o'zini qurbon qilishga ham tayyor turish, deb tushunadilar.

A.A.Xo'jayev va Xenki Lentininlar "ta'lim muassasasini boshqarish bu mahsulot ishlab chiqarish yoki maishiy xizmat ko'rsatishdan tubdan farq qiladigan, ta'lim tizimi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, o'qituvchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar jarayonidir, garchand shu kunga qadar "boshqarish bu nima, hunarmi yoki san'at?" degan tortishuvlarga chek qo'yilmagan bo'lsa ham, hech ikkilanmasdan san'at deb baralla aytish mumkin", - deb ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, MTTda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish ularning faoliyatini boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradilar, mazkur faoliyat o'z navbatida rahbarlar va ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining boshqaruv faoliyatini ifodalaydi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga imkon beruvchi ilmiy-nazariy manbalarni tahlil etish, DTS, Malaka talablari, o'quv reja va dasturlari, o'quv-metodik hujjatlar va o'quv adabiyotlarini o'rganish, qiyosiy tahlil,

pedagogik kuzatuv, test, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Malaka amaliyoti davri oliy ta'lim muassasalarining talabalar uchun mas'uliyatli, o'ziga xos murakkab, shu bilan birga nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni ham taqozo etuvchi jarayon sanaladi. Mazkur jarayon bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash, ularda mutaxassislik bilimlarini mustahkamlash va ta'lim oluvchilar, pedagogik jamoalarning a'zolari, ta'lim tashkilotlarining rahbarlari, ota-onalar bilan ishlash ko'nikma-malakalarini shakllantirish, o'zlarining ma'naviy-axloqiy, ruhiy, intellektual jihatdan pedagog sifatida tayyor ekanliklarini his etishlari uchun zarur imkoniyatni yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Amaliyot davrida talabalar faoliyati ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) shaxslararo (tarbiyalanuvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, rahbariyat) munosabatlarning ishtirokchisi;

2) mutaxassis sifatida faoliyat yurituvchi (ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etuvchi) pedagog.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagogik kadrlarning kasbiy malaka va mahoratga ega bo'lishlari uchun ularga ixtisoslik, pedagogika, psixologiya, fiziologiya fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni berishning o'zi yetarli emas. Mazkur xulosaga bundan qariyb yarim asr muqaddam rivojlangan xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida kelingan edi.

Tadqiqotlar yakunida ma'lum bo'ldiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga har tomonlama yetarli darajada tayyorlanishlari uchun nazariya va amaliyot o'rtasida o'zaro integratsiyaga erishish, ularni bevosita ta'lim muassasalari faoliyatiga jalb etish, ya'ni pedagogik amaliyotni tizimli tashkil etish taqozo etiladi.

Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSHning bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlovchi qator universitetlarida pedagogik amaliyot ta'limning so'nggi bosqichida deyarli butun o'quv yili davomida tashkil etiladi.

Hozirda pedagogik amaliyotning ikki shakli keng ommalashgan:

1) talabalar ta'lim muassasalarining doimiy xodimlari sifatida faoliyat olib boradilar va yosh o'qituvchilarga beriladigan oylik maoshning 1/3 qismiga teng mablag' bilan ta'minlanadilar;

2) talabalar malakali o'qituvchi rahbarligida ta'lim muassasalarida oylik maoshsiz ishlaydilar va ba'zan o'qituvchining o'rnida barcha pedagogik jarayonlarni boshqaradilar.

Bunday holatda pedagogik amaliyotga rahbarlik va boshqaruv ta'lim muassasasining xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Universitetdan amaliyot uchun mas'ul shaxs sifatida birlashtirilgan mutaxassis esa talabalarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib turadi va amaliyot obyekti (MTT yoki pedagogika kollejlari) hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in (zveno) sanaladi.

Bugungi kunda amaliyotlar bo'lajak mutaxassislarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning asosiy shakli va vositasiga aylandi. Shunga ko'ra, pedagogik amaliyotlar kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi vazifalarni bajarishi ko'zda tutilmoqda:

- talabalarni MTTning tarkibiy tuzilmasi, faoliyat mazmuni, tashkilot pedagogik jamoasining ish tajribasi bilan yaqindan tanishtirish;

- talabalar tomonidan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etilishini o'rganishni ta'minlash;

- amaliyotchi-talabalarni o'quv faoliyatining turli shakllari (ta'limiy faoliyat, o'yin, mustaqil faoliya, to'garaklar) ning mohiyati bilan amaliy tanishtirish;

- talabalarning MTTda turli bayram-ertaliklari va tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi bilan tanishishlari uchun zarur sharoit yaratish;

- amaliyotchi-talabalarga ta'lim tashkiloti me'yoriy hujjatlari, ish tajribasini o'rganishda yordam ko'rsatish;

- talabalarni jamoa, alohida shaxsga ta'sir etish, alohida tarbiyalanuvchilar faoliyatini tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zining kasbiy faoliyatini baholashga doir metodlar bilan tanishtirish;

## ILMIY AXBOROT

- amaliyotchi-talabalarda pedagogik refleksiya va pedagogik jarayonlarni taniqliy anglash malakalarini rivojlantirish;

- talabalarda ular tomonidan oliy ta'lim muassasasida o'zlashtirilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga doir bilimlarni amalda qo'llash, yanada takomillashtirish ko'nikmalarini hosil qilish;

- amaliyotchi-talabalarda mas'ul shaxslar rahbarligida pedagogik vaziyatlarni mustaqil baholash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarda pedagogik jamoa, alohida bola shaxsini o'rganishga majmuaviy yondashuvni qaror toptirish;

- amaliyotchi-talabalarni ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasi va metodistning metodik kabinetlarini jihozlash, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini tatbiq etishga doir boy ish tajribalari bilan yaqindan tanishtirish;

- talabalarda psixologik-pedagogik tadqiqotlarni olib borish ko'nikmalarini shakllantirish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi amaliyotchi-talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotdagi holatini ko'rish imkonini beradi.

Pedagogik amaliyot dasturida kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishning umumiy mohiyatidan kelib chiqqan holda maqsad, vazifalar, amaliyot ishtirokchilari, talabalarning amaliy pedagogik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi mas'ul shaxslar, ular zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar, talabalar faoliyati, mazkur jarayonda tashkil etiladigan tadbirlarning shakllari, talabalar tomonidan yuritiladigan hujjatlarning turlari, belgilangan talabalarining bajarilishini baholashga imkon yaratadigan mezonlar va boshqalar yoritiladi[5].

Malakaviy amaliyotlar uchun tuzilgan dasturlarda amaliyotchi-talabalarning huquqlari va majburiyatlari alohida ko'rsati o'tiladi.

Amaliyot davrida talabalar o'zlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlar, fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy faollik va kasbiy faoliyatga nisbatan qiziqishni namoyon etadigan boshlovchi mutaxassis sifatida namoyon eta olishlari lozim. Ular amaliyot bazasida pedagogik jamoa o'rtasida o'zlarining tartiblilik, intizomlilik, mehnatsevarligi bilan boshqalarga o'rnak bo'la olishlari lozim. Ish jarayonida amaliyotchi-talabalar kasbiy tayyorgarlikka ega ekanliklarini namoyon eta olishi bilan birga ta'lim muassasasining faoliyatida faol ishtirok etishlari zarur bo'ladi.

Amaliyotchi-talabalar quyidagi huquqlarga ega:

- amaliyot jarayonida har qanday pedagogik masala bo'yicha amaliyot rahbari, MTT ma'muriyati va xodimlariga murojaat qilishi;

- amaliyot mazmuni va uning tashkil etilishini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ilgari surish;

- MTTda uyushtiriladigan konferensiya va yig'ilishlarda ishtirok etish;

- universitet va amaliyot bazasi bo'lgan MTTning axborot-resurs markazi xizmatidan, fan kabinetlari, texnik vositalardan foydalanish.

Talabalarning amaliyot bo'yicha majburiyatlari 2 turga ajratiladi:

1) amaliyotchi-talabalarning tashkiliy faoliyat bo'yicha majburiyatlari;

2) amaliyotchi-talabalarning pedagogik faoliyat bo'yicha majburiyatlari.

Amaliyotchi-talabalarning tashkiliy faoliyat bo'yicha majburiyatlari:

- pedagogik amaliyot mohiyati va mazkur jarayonda bajariladigan vazifalardan xabardor bo'lish;

- pedagogik amaliyotning boshlang'ich bosqichida maktabgacha pedagogika, bolalar psixologiyasi va ixtisoslik fanlari bo'yicha topshiriqlarni olish;

- o'z faoliyatini ta'lim tashkilotining Ustavi asosida tashkil etish;

- ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalariga bo'ysunish;

- MTTda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

- MTT ma'muriyati, pedagogik amaliyot rahbarlarining talabalarini bajarish;

- sababsiz pedagogik amaliyotdan chetlanmaslik;

- pedagogik amaliyotdan chetlashish zaruriyati yuzaga kelsa, bu haqida guruh rahbarini xabardor qilish, uning yoki amaliyot uchun mas'ul shaxslardan birining ruxsatini olish;

- amaliyotni tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u holda bu haqida guruh rahbari bilan maslahatlashish, ularni bartaraf etish yo'lida amaliy harakatni olib borish



Amaliyotchi-talabalarning pedagogik faoliyat bo'yicha majburiyatlari:

- ilg'or ta'lim va tarbiya texnologiyasi asoslaridan yetarli darajada xabardor bo'lish;
- pedagogik faoliyatni olib borishda ta'limning yangi turlari, interfaol metodlardan samarali foydalanish;
- bola shaxsiga doir psixologik-pedagogik ma'lumotlar banki bilan yaqindan tanishish;
- tarbiyalanuvchilarni erkin, mustaqil shaxs sifatida rivojlantirish;
- MTT tomonidan tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarning mavjud ahvolini o'rganish;
- pedagogik ta'lim muammolariga doir ilmiy-metodik jurnallar, nashr mahsulotlari, matbuot materiallari bilan doimiy tanishib borish.

Amaliyot jarayonida talabalar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari natijasida amaliy pedagogik malakalarni muvaffaqiyatli tarzda egallash imkoniga ega bo'ladilar.

Amaliy pedagogik malakalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- MTTda o'quv-tarbiya jarayonni tahlil qilish;
- bolalar jamoasini hamda jamoa a'zolarining har birini o'rganish;
- tarbiyalanuvchi shaxsini o'rganishda samarali metodlardan foydalanish;
- mavzusi, mohiyati, yo'nalishi va tarbiyaviy vazifalari turlicha bo'lgan pedagogik tadbirlar (istiqbolli, joriy, qisqa yoki tezkor muddatda amalga oshiriladigan va h.o.) rejasini tuzish, loyihalarni ishlab chiqish;
- alohida xususiyatga ega (iqtidorli, faol, passiv va h.k.) bolalar bilan individual aloqa o'rnatish;
- bola shaxsiga berilgan tavsifnomalar asosida to'g'ri qarorlar qabul qilish;
- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish (guruh tarbiyachisining ish tajribasini o'rganish, pedagoglar bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga doir individual ish rejasini ishlab chiqish, ish rejani ishlab chiqishda manbalariga tayanish, tarbiyaviy tadbirlarda o'faol ishtirok etish);
- to'garaklar, sport seksiyalarida mashg'ulotlarni tashkil etishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish.

Amaliyot davrida talabalarda amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tegishli ko'nikma va malakalar ham shakllantirilishi zarur. Bularga:

- tarbiyachining ish tajribasi bilan yaqindan tanishish va uni batafsil o'rganish;
- rivojlanish xaritasi vositasida bolalarning rivojlanish sohasiga oid kompetensiyalarni egallash dinamikasini o'rganish;
- bolalar jamoasiga, alohida tarbiyalanuvchilarga nisbatan pedagogik vazifalar (mustaqil faoliyat)ni qo'yish;
- bolalarning yoshini, tarbiyalanganlik darajasini hisobga olgan holda rivojlanish markazlarida ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish;
- tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ishlash malakalarini o'zlashtirish va boshqalar.

Pedagogik amaliyotning asosiy mazmunini talabalarning bolalar bilan olib boradigan amaliy ta'limiy ishlari tashkil etadi. Amaliy ta'limiy ishlar talabalar tomonidan amalga oshiriladigan barcha turdagi pedagogik faoliyat qamrab oladi.

### XULOSA

Amaliyotchi-talabalar tomonidan pedagogik faoliyat vazifalarining yuqorida keltirilgan loyihalar va mexanizmlar asosida tashkil etilishi ularning metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishini ta'minlabgina olmay, shu bilan birga samarali bo'lishiga ham yordam beradi. Qolaversa, keltirilgan loyiha va mexanizmlar bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik vazifalarni bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptiradi.

Amaliyotchi-talabalarning yuqorida ko'rsatilgan vazifalar, huquq va majburiyatlar negizida namoyon bo'ladigan malakalarni yetarli darajada namoyon eta olishlari o'z-o'zidan ularning kasbiy-pedagogik faoliyatga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyor ekanliklaridan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.Ш.Олимов, Б.Т. Жураев. Малакавий амалиёт. Методик қўлланма. –Б.: Бухоро давлат университети, 2021. - 41 б.
2. Fayol Anri. "Umumiy va sanoat ma'muriyati". – F.: 1916, 9-b

## ILMIY AXBOROT

3. Sh.A.Tursunov, Sh.B.Rashidova. "Menejment va marketing asoslari" O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2014 6-b.
4. Ta'lim menejmentini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. –T.: 2021, 57-b.
5. Педагогик амалиёт: тизим моҳияти ва механизми. Э.Юзликаева., Ж.Фуломов., Х.Рузиметов ва бошқалар. Низомий номидаги ТДПУ, 2012 й., -165 б.
6. Sagindikova N.J. Talabalar o'quv faoliyatida mas'uliyatning tender xususiyatlari / Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya", 2016, 120 -b.
7. Tadjiyev O.A. Pedagogik mahoratni oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish. / Zamonaviy ta'lim. 2015, 12-son, 28-32-betlar.
8. Zaripov L., Xayitov N., Tohirov Z. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish / Metodik qo'llanma. –T.: "Sano-Standart", 2023. 32-b.
9. Цукерман Г.А. Как младшие школьники учатся учиться? – Рига: ПЦ "Эксперимент", 2000. – 224 с.
10. <https://cyberleninka.ru>